

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.D.Dehqonov	
Bolalarni qo'g'irchoq teatri orqali tarbiyalashning o'ziga xos ahamiyati.....	194
X.M.Xoshimxonov	
Xoja Ahmad Yassaviyning irfoniy – falsafiy qarashlari.....	198
M.A.Muxiddinova	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining jamoaviy ijodiy, kasbiy va texnik tayyorgarligining pedagogik xususiyatlari.....	204
Y.A.Saidova	
O'smirlarda ishonch hissi va uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	208
Sh.A.Mamajonov, X.M.Jo'rayev	
Bo'lajak kimyo o'qituvchilarida ekologik kompetentlikni shakllantirish.....	213
M.M.Azizov	
Skandinavcha yurish sport-sog'lomlashtirish dasturlarini optimallashtirishning asosiy vositasi sifatida	218
D.V.Vohidova	
Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy ustoz-shogird sifatleri haqida.....	223
X.X.Raxmatova	
Murosa falsafasiga doir tushunchalarning tasavvufiy mohiyati	227
X.X.Raxmatova	
Ma'rifatli jamiyat qurishda Xoja Ahror Valiy murosaga oid qarashlarining ahamiyati.....	232
O.L.Berdiyev	
Abu Ali Ibn Sino va Nosiruddin Tusiyning falsafiy qarashlari	237
D.D.G'ulomov	
Abdulla Qodiriy ijodida retrospektiv syujet ("Mehrobdan chayon" romani misolida)	243
D.I.Gulamova	
Interpretation of euphemisms used in social life	246
M.K.Juliyev, L.A.Gafurova, M.D.Xolmurodova, B.E.Abdikairov	
O'zbekistonda tuproq eroziyasining sabablari va eroziyaga tasir qiluvchi omillar	250
B.O.Komilova, M.R.Toxirova	
Yuqori sinf o'quvchilarining aqliy faoliyatiga jismoniy mashqlarning ta'siri	254
B.O.Komilova	
Ichak turli bo'limlaridagi fermentlar faolligining ayrim gormonlar ta'sirida o'zgarishi.....	257
Z.M.Otaxonova, J.M.Otajonov	
Talabalarni xalq pedagogikasi asosida milliy ruhda tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari	260
A.I.Mirzoyev, M.A.Mamasoliyeva, J.M.Turdaliyev, B.D.Raxmonov, Sh.Sh.Turg'unboev, I.A.Xudoynazarov	
Navoiy viloyati sho'rlangan tuproq tarkibidagi tuzlarni yuvish uchun kimyoviy melioratsiya usulidan foydalanish istiqbollari.....	263
Sh.K.Abduraxmonov	
Chaqiriqqacha harbiy ta'lim kursantlarida kasbiy madaniyatni rivojlantirish metodikasi va pedagogik shartlari.....	270
U.R.Radjabov, K.B.Xakimdjano	
Maktabgacha ta'lim muassasi tarbiyalanuvchilarini harakatli o'yinlar orqali bolalar psixologiyasini va nutqini rivojlantirish usulublari.....	275
O.Ortiqov	
Mustaqillik davrida ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar tahlili (1990-1994 yillar).....	279
A.R.Jo'rayev	
Minnatdorchilik bildirish nutqiy janrining lingvistik xususiyatlari.....	283
M.C.Курбоналиева	
Муаррифии чанд тазираи умумии шоирони асри xviii	286
X.A.Lutfullayeva	
Problems of developing self-educational skills of students	293
P.Абдуллаев	
Татабуъоти Амир Муиззй ба қасидаҳои Унсурии Балхӣ	298
	XOTIRA
Ustoz Muxammadjon Qoraboyevning yorqin xotirasi	304

MUROSA FALSAFASIGA DOIR TUSHUNCHALARNING TASAVVUFİY MOHIYATI

МИСТИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ КОНЦЕПЦИЙ ФИЛОСОФИИ ПРИМИРЕНИЯ

THE MYSTICAL ESSENCE OF THE CONCEPTS OF THE PHILOSOPHY OF RECONCILIATION

Raxmatova Xolidaxon Xolikovna¹¹Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti**Annotatsiya**

Maqolada murosa falsafasiga doir murosayu madora, sulh, shukronalik, rizo, ixtilof va ixtilot, murosalo tushunchalarining tasavvufiy mohiyati falsafiy nuqtai nazardan tahlil etilgan. Mazkur tushunchalarning Naqshbandiylik namoyandalari qarashlarida insonning barkamolligidagi o'zni asoslab berilgan.

Аннотация

В статье с философской точки зрения анализируется мистическая сущность понятий примирения, мира, благодарности, согласия и раздора. Роль этих понятий в совершенствовании человека обоснована во взглядах представителей Накшбанди.

Abstract

The article analyzes the mystical essence of the concepts of reconciliation, peace, gratitude, harmony and discord, and reconciliation from a philosophical point of view. The role of these concepts in human improvement is justified in the views of Naqshbandi representatives.

Kalit so'zlar: murosa, barkamollik, o'z-o'zini anglash, rizo, shukur, sulh, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Vali, Faxruddin Ali Safiy.

Ключевые слова: компромисс, совершенство, самосознание, шукр, благодарность, мир, Бахауддин Накшбанд, Ходжа Ахрар Вали, Фахруддин Али Сафи.

Key words: compromise, perfection, self-awareness, shukr, gratitude, peace, Bahauddin Naqshband, Khoja Ahrar Vali, Fakhruddin Ali Safi

KIRISH

Hozirgi davrda insoniyat jamiyati taraqqiyotining barqarorligini, dunyoning yaxlitligini, insoniyatning bir butunligini ta'minlash, ijtimoiy hayotning xilma – xil sohalarida erishayotgan yutuqlaridan turli mintaqa va davlatlarning faol foydalanishini keltirib chiqarishda aksariyat hollarda toqatsizlik va murosasizlikning turli ko'rinishlarini asoslash, targ'ib qilishga tayanadigan mafkuralar dunyo sahnida ustuvor bo'lishga harakat qilib kelmoqdalar.

“Yoshlarning ongida qanday kayfiyat ustunligini aytsang, men senga keyingi avlodning tabiati qanday bo'lishini aytib beraman”, - deb yozgan edi ingliz siyosiy arbobi Edmund Berk. Shu nuqtai nazardan qaraganda, murosasizlik mafkurasi ijodkorlari jamiyatning ertangi kunini belgilab beradigan avlod ongini egallash, nazorat qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganligi murosa falsafasini o'rganishni muhim vazifalardan biri deyishimizga asos bo'la oladi.

Insonlarning murosayu madorada yashashi, sulh munosabatlarida bo'lishi kerakligi g'oyasi azaldan faylasuflar, olimu fozillarning diqqat markazida bo'lgan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy ta'limotining zamirida xalqlarni bir-biriga qarshi va bir-biridan ustun qo'ymaslik, balki, ularni butun insoniyatning ajralmas qismi sifatida talqin qilish tamoyili yotadi. Abu Rayhon Beruniyning esa o'zga xalq va millatlar qadrini bilmagan kishi o'z xalqi va millatining qadriga yetmasligi haqidagi qarashlari oqilona va umumbashariy ahamiyatga molik bo'lib, faylasufning ushbu fikri bugungi o'zbek xalqiga xos bo'lgan bag'rikenglikning ildizlari ming yillarga borib taqalishining yaqqol isbotidir. Beruniyning nuqtai nazaricha, boshqa xalq va millatlar ongidagi ba'zi bir noo'rin fikr-mulohazalarga xos bo'lgan shak-shubhalardan xalos qiluvchi manba – bu milliy ongdagi murosadir. Alisher Navoiy ham o'zbekona murosa negizida el-yurtga, xalqqa va muhtojlarga beminnat yordam berishni eng yuqori karam, deb hisoblagan. “Karam – bir jabrlanganning qattiqchilik yukini ko'tarmoq va uni o'sha qiyinchilikdan qutqarmoq demakdir. Karam – biron mashaqqat tikani og'irligini ko'tarmoq va u tikan uchidan guldek ochilmoq va o'sha qilingan ishni qaytib tilga keltirmaslik, og'izga olmaslik, ishiga minnat qilmaslik va uning yuziga solmaslik”,(1;25-26) deb

buyuk mutafakkir murosa tuyg'usining negizini talqin qiladi. Muxtasar qilib aytganda, murosa kishilarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, uning shaxs sifatidagi erkinliklarini ta'minlash kabi g'oyalar bilan sug'orilgan ijtimoiy, diniy, falsafiy, huquqiy, ahloqiy va shular singari barcha insoniy qarashlardan iborat dunyoqarashning asosi bo'lib xizmat qiladi. Abu Iso Termiziyning shoh asari bo'lmish «Al jomi' as-sahih»da ezgulik va murosa inson ma'naviy yetukligining muhim belgilaridan biri ekanligi alohida ta'kidlanib: «Bir-biringizning orangizni buzming, bir-biringizni yomon ko'rmang, bir-biringizga hasad qilmang», deb uqtirilgan.

Uzoq vaqtlar mobaynida murosayu madora bilan yashash o'zbek xalqining tabiatiga xos xususiyat bo'lib kelgan. Shunday ekan, hozirgi kunda yoshlarning barkamol, yetuk qilib voyaga yetkazishda murosa falsafasiga doir tushunchalarning falsafiy, tasavvufiy mohiyatini to'g'ri anglash o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqot ishining bosh g'oyasini tashkil etgan murosa falsafasiga doir kategoriyalarning tahlili psixologik jihatdan A.V.Filippov, konfliktologiya nuqtai nazaridan E.S.Cherepanova, falsafiy jihatdan Sh.Xayitov, Sh.Negmatova(3;122) tomonidan amalga oshirilgan.(2;196) Mutasavviflarning tinchliksevarlik, sulhparvarlik faoliyati G.N.Navro'zova, M.T.Voxidova, O.T.Sharipova, N.O.Safarova, G.S.Yunusovalarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qurish uchun xalqimiz murosayu madorada yashashi muhim ahamiyat kasb etadi. Murosa falsafasining asosiy kategoriyalari – tushunchalariga tayanib murosa falsafasining mohiyatini ochishga harakat qilamiz. Bunda dialektik, sinergetik, germenevtik va metafizik yondashuvlar asosida murosa tushunchasini metodologik tahlil etish lozim. Ilmiy nuqtai nazardan, har qanday atama yoki tushunchaning ta'rifi va tavsifida u ifodalaydigan mazmun-mohiyat va o'ziga xos jihatlar aks etishi ma'lum. "Murosa" atamasi ham bundan mustasno emas.

Murosa tushunchasi ijtimoiy falsafaning asosiy kategoriyasi bo'lib, ijtimoiy munosabatlarga xos xususiyatdir. Murosa atamasining qaysi tildan olinganligi munozarali masala bo'lmoqda desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki turli lug'atlarda bu so'zning qaysi tildan olinganligi turlicha yozilgan.

Murosa ((مُسَالَمَةٌ) arabchadan) bir-biridan rozilik, o'zaro kelishish, o'zaro kelishuvli munosabat, kelishuv degan ma'noni anglatadi,- degan fikrlar keltirilgan.(4; 304)

"Madora" (مَادُورَا) degan arab tilidagi so'z esa, boshqalarga nisbatan lutf bilan munosabatda bo'lish, o'zaro kelishib yashash ma'nosida qo'llaniladi. Shu ma'noda murosayu madora deb birgalikda qo'llanilishi va mazkur birikma kelishish degan ma'noni anglatishidan dalolat beradi. Fikrimizcha, O'rta Osiyoda o'tmishda ko'proq arab yozuvida, forsiy tillarda asarlar yozilganligi sababli forsiy va arab lug'atlariga munosib ravishda murosayu madora shaklini olganligi ehtimoldan xoli emas.

NATIJALAR

O'tish davrida ko'p millatli mamlakatda millatlararo murosa muhitini yaratish katta ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega. Mazkur muammo mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq hal etilishi dolzarb masala sifatida davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mamlakatda yurt tinchligini ta'minlash va barqaror muhitni yaratish, millatlararo munosabatlarni muvofiqlashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib uning nazariy asoslari ishlab chiqildi va amaliyotga faollik bilan joriy eta boshlandi.(5; 345) Natijada mamlakatda ijtimoiy murosa muvozanat konsepsiyasi dunyoga keldi.

Murosa atamasi o'z mazmun-mohiyati, shakli jihatidan kompromiss, konsensus, ijtimoiy hamkorlik, yakdillik, kelishish, shartnoma kabi so'zlarga qaraganda sermazmun, murakkab, keng qamrovli va ayni paytda mantiqiylik doirasida ularni o'z ichiga sig'diradi. Shularga asoslanib borliq, tabiat, jamiyat, inson faoliyatining turli jihatlarini, sohalarini, yo'nalishlarini u yoki bu ko'rinishda ifodalaydigan har qanday ijtimoiy hodisaga nisbatan murosa umumiylikni hamda genezisi nuqtai nazaridan oldin paydo bo'lganligini bildiradi.

Murosa falsafasining asosiy tushunchalariga *rizo, o'zaro kelishish, o'zaro kelishuvli munosabat, kelishuv, kelishuvchilik, ijtimoiy hamkorlik, kompromiss, konsensus, ahillik, birdamlik, sog'lom raqobat, tinchlik, osoyishtalik, diniy bag'rikenglik, milliy va millatlararo munosabatlarda totuvlik* kiradi. Murosaga qarama-qarshi bo'lgan tushunchalarga *ziddiyat, nizo, urush, janjal,*

adovat, kelishmaslik, konflikt, millatchilik, guruhbozlik, diniy va nosog'lom raqobat kiradi. Bu tushunchalarning tahlili ko'rsatadiki, murosali hayot tarzi jamiyatning rivoji va taraqqiyotiga asos bo'lib xizmat qiladi. Murosasizlik jamiyat ahli o'rtasida norozilik va kelishmovchiliklarni chiqarib, jamiyat ravnaqiga g'ov bo'ladi.

Murosa shaxsning o'zida, shaxslararo, oilada, mahallada, qo'shnilararo, mehnat jamoalari, ijtimoiy hamkorlik jarayonida, millat, din, irq, jinslararo, davlat va shaxs, davlatlararo munosabatlarda namoyon bo'ladi. Murosa ziddiyatlarning eng maqbul yechimidir. Murosa holiga kelish uchun avvalo, inson o'zi-o'zi bilan murosaga kelishi kerak. Murosa – insoniy fazilat, chunki u faqat o'zini anglagan insonda bo'ladi. Insonda o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini nazorat etish, o'z-o'zidan hisob olish muntazam davom etadigan jarayon bo'lsa, inson me'yorda va murosada yashaydi.

Murosa jamiyatda barqarorlikni ta'minlaydigan qonunlardan biridir. Agar qaysi jamiyat a'zolari o'zaro inoqliq, hamfikrlilik, uyushqoqlik barqaror hayot omili degan mulohazaga kelsa, bu jamiyatga nisbatan boshqalarda beixtiyor hurmat-ehtiromlar tuyg'usi yuzaga keladi. Mabodo, jamiyatda o'zaro kelishmaydigan, fikri va amali ayri-ayri bo'lgan – millati, dini, irqi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi boshqa bo'lgan odamlarga nisbatan murosasiz munosabat bildirilsa, buning oqibatida insonlarda ishonchsizlik, begonalashuv holatlari vujudga keladi. Bu jamiyatning xalqaro nufuziga ham ta'sir etadi. Shu boisdan ham jamiyatdagi o'zaro ahillik, inoqlik, ijtimoiy birdamlik hamisha dolzarb ijtimoiy-ma'naviy muammo bo'lib kelgan. Murosa tushunchasi falsafiy dunyoqarash sifatida manfaatlarini, barqaror taraqqiyotni ta'minlashda ijtimoiy hamjihatlikning namunasi hisoblanadi.

Demak, murosa jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning omilidir. Barqarorlik va o'zgaruvchanlik dialektik falsafaga xos tushunchalardir. Barqarorlik narsa va hodisalarga xos muayyanlikni ifodalasa, o'zgaruvchanlik ularning ma'lum bir holatdan boshqa bir holatga o'tish jarayonini bildiradi. Mazkur jarayon mutlaq xarakterga ega. Tayin narsalarga oid xossa sifatida esa u nisbiydir, chunki narsalarning o'zgarishi biron-bir muayyanlikka nisbatangina sodir bo'ladi. Dialektika barqarorlik va o'zgarishni o'zaro uzviy birlikda, mavjud dialektik qarama-qarshiliklar tarzida olib qaraydi.(6;40) Barqarorlikning muhim shartlaridan biri murosadir. Chunki, murosa – qarama-qarshi tomonlar ziddiyatlarining bartaraf etishidir.

Fikrimizcha, murosa falsafasi ijtimoiy hamkorlikdan ko'ra kengroq mazmunga ega. Bu falsafa millat, din, irq, jinslararo, davlat va shaxs, davlatlararo munosabatlarni ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham murosa eng oliy ne'mat bo'lgan mamlakat tinchligining asosidir. Insoniyat hayoti davomida ezgu maqsadlarga yetish uchun doimo izlanadi va harakatda bo'ladi. Ezgu maqsadli inson orzu-umidini amalga oshirishi uchun eng katta tayanch – tinchlik va osoyishtalikdir. Odatda, tinchlik so'zi insonlar bilan murosa qilishni, ularni bezovta qilmaslikni, holatlarning tinch va osoyishta, urush-janjalsizligini, hayot va turmush tizimini bir me'yorda bo'lishligini ifoda etadi.(7; 28)

Sulh arabcha so'z bo'lib, "kelishuv", "ittifoqlashuv", "janjallashmaslik" ma'nolarini anglatadi. Bu so'zning ziddi: "arazlashmoq", "urishmoq", "kelishuvni buzmoq", "ajrashib ketmoq". Sulh borasida ilohiy qonun bitta: «الصُّلْحُ خَيْرٌ» Sulh – kelishuv, yarashuv, urushmaslik eng yaxshi, eng afzal». Arab tilida خَيْرٌ so'zi odatda اَخِيْرٌ ma'nosi iroda qilinadi. اَخِيْرٌ degani eng yaxshi degan ma'noni anglatadi. Insoniyat tarixi-urushlar tarixidan iborat. Ertaklarda-urush. Dostonlarda-urush. Kitoblarda-urush. Kinolarda – urush... Tabaqalar urushi. Fuqarolar urushi. Mamlakatlar urushi. Jahon urushi. Olimlarning hisob-kitoblariga qaraganda, so'nggi olti ming yil ichida Yer kurrasida 5700 marta urush bo'lgan ekan. (Mayda-chuyda qabilalar janjali bu hisobga kirmaydi). Yana o'sha olimlarning aytishicha, odamzot o'rtacha oltmish yil umr ko'rarkan. Bundan chiqdi, inson bolasi hayoti davomida 57 yil urush qilib, uch yil "dam olar" ekan. Agar insoniyat o'zaro sulh va murosa munosabatlarida yashaganida shunchalik talafotning oldi olingan bo'lardi.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam biror qabilada urush chiqib qolganini eshitsalar o'sha zahoti borib, ularning orasini isloh qilar edilar. Er-xotin o'rtasida janjal chiqib, bir-biri bilan arazlashib qolganda yaqinlari qarab turmasin, oilani saqlab qolishga harakat qilib, yarashtirishsin. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: «Ro'za, namoz va sadaqa darajasidan ham afzalroq amalni xabarini beray-mi?», dedilar. Sahobalar roziyallohu anhum: "Ha", deyishdi. U zot: "Arazlashib qolganlarning orasini isloh qilishdir. Chunki oralarning buzilishi qiruvchidir",- dedilar.

El-yurtda tinchlik va osoyishtalik davom yetsa, mamlakat taraqqiyoti, farovonligi, yurt ahlining turmushi obod bo'ladi. Bularni aks ettiruvchi muqaddas qadriyatlarimiz, milliy urf-

odatlarimiz, dinimiz bevosita xotirjamlik silsilasiga uzviy bog'liqdir. Insoniyat, dov-daraxt, chorva-mol, qurt-qumursqaga havodek zarur bo'layotgan tinchlik, xotirjamlik, osoyishtalikdan ham ziyoda, mo'tabar ne'mat yo'q. Tinchlikka qarama-qarshi tushuncha urushdir. Bu borada O'tkir Hoshimovning quyidagi fikri e'tiborga molikdir: "Urushning yaxshisi bo'lmaydi. Ammo eng dahshatli urush-fuqarolar urushi. Negaki, u avloddan avlodga meros bo'lib, abadiy davom etadi. Urush bilan besh kunda bitadigan muammo tinchlik bilan besh yilda bitsa, shunda hamki, ikkinchi yo'lni tanlash kerak!".(8;12) Bu fikrdan xulosa chiqadiki, fuqarolar o'rtasida tinchlik va ahillikni ta'minlash eng muhim masaladir. Murosa xalqimizning ulug' qadriyatlaridan biridir. Murosa iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy, ma'rifiy munosabatlarning asosini tashkil etadigan adolat, imkoniyat tengligi kabi qadriyatlar tizimidir.

MUHOKAMA

Zamonaviy istilohlarda murosa so'zining sinonimi sifatida kompromiss so'zi qo'llaniladi. Kompromiss deganda ikki yoki uch tomonning vaqtincha murosa holati tushuniladi. Kompromiss holatida tomonlar bir-birlarini toqat qiladilar, raqiblar bilan keskin ixtiloflardan ongli ravishda tiuilib turadilar. Ruhiiy holatlarning o'zgarishi nuqtai nazaridan qaraganda kompromiss holatida ziddiyatlar tashqari shakldan ichkari shaklga o'tadi. Ichki zo'riqish vaziyati muayyan muddatgacha o'zini oshkor etmay turadi. Ammo biror-bir tomon uchun qulayroq ijtimoiy-siyosiy muhit yuzaga kelishi bilanoq, kompromiss holati oshkora ziddiyatga aylanib ketishi mumkin.

Demokratik rivojlanish jarayoni bizdan hatto raqiblar bilan ham kompromissga erishishimizni taqozo etadi. Chunki:

1) Kompromiss yoki murosaga kelish – o'zaro yon berishni ta'minlaydigan hatti-harakatlar strategiyasi;

2) Urushayotgan tomonlarning o'zaro kelishuvlar asosidagi yon berishidir. (9.100)

Hozirgi davrda murosa nizolarni hal qilishning yagona shakli yemas. Agar tomonlardan biri dushmanni yo'q qilishni maqsad qilgan bo'lsa, murosa qo'llanilmaydi. Murosaga kelish tomonlardan o'z manfaatlarini bilishi va ularni ochiqdan-ochiq amalga oshirishini talab qiladi.

Kompromiss holatini milliy mentalitet, axloq-odob, davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'ziga xoslik ma'lum darajada jilovlab turadi. Shu narsa ye'tiborga molikki, kompromiss holati muayyan ijtimoiy-siyosiy muhit, davr, ma'naviy-madaniy yondashuvlar o'zgarishi bilan insoniy munosabatlardan chekinish holatlariga ham o'tishi mumkin. Fikrimizcha, Naqshbandiya ta'limotidagi murosa tushunchasi kompromiss tushunchasiga nisbatan kengroq ma'noga ega. Chunki kompromissda tashqi ziddiyat ichki ziddiyatga aylansa, murosada tashqi va ichki ziddiyatlar uyg'un holatda o'z yechimini topadi. Kompromissda tinchlik va osoyishtalik vaqtinchalik bo'lsa, murosada ahillik va xotirjamlik barqaror va bardavomdir.

Sahl as-So'idiy roziyallohu anhudan rivoyat qilingan: **«Bani Amrning orasida urush bo'lgan edi. Bu Payg'ambar sallolohu alayhi vasallamga yetib bordi. Shunda U zot peshinni o'qib bo'lib, ularning orasini isloh qilish uchun keldilar.** Demakki, o'zaro urishib qolgan qavmning yarashtirish uchun Payg'ambarimizning shaxsan o'zlari borishlari, sulh ishi o'ta ahamiyatli ish ekaniga dalolatdir. Payg'ambarimizning mazkur ishlari barcha insonlar, xususan, rahbar shaxslar uchun o'rnak desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Naqshbandiya ta'limotidagi murosa falsafasiga doir tasavvufiy tushunchalarga xos bo'lgan murosayu madora, o'z-o'zini anglash, nafsni tarbiyalash, kibri yo'qotish, shukronalik, sabr kabi tamoyillar Yangi O'zbekistonda har bir insonga ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash hamda mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g'oya asosida birgalikda kurashish, ma'naviy tarbiyaning uzviylikini ta'minlash, milliy qadriyatlar va ma'naviy merosni asrab-avaylashdagi ahamiyati kattadir. Mutasavviflarning murosa to'g'risidagi qarashlari sabr, shukr, rizo kabi tushunchalarga tayanadi. Xoja Ahror musulmonlar boshidan jabr-zulmni daf etmoq uchun din va shariatni dastur qilgan holda sultonlarga murojaat qilmoq lozimligini Naqshbandiya tariqatining vazifalaridan deb uqtiradi. Xoja Ahror saroy xizmatidan voz kechmoqchi bo'lgan Alisher Navoiyga xat yozib, aytadi: "...Eshitishimcha, onhazrat, ya'ni sultonga mulozamat qilishdan goho malolat chekar ekansiz. Iltimos shuki, musulmonlarga madad yetkazmoq va biror faqirning dili mushkullikdan xalos topib, shod bo'lmog'i uchun xotiri sharifingizni saroy xizmatidan uzming... Biror kishi ham musulmonlar g'amini yeyishni o'ylamay qo'ygan bu vaqtda ularga g'amxo'rlik qilish — eng xayrli ishdir!.."

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlariga shunday savol berilgan ekan: “Murosa ilmi” to‘g‘risida eshitganmiz, shu ilm haqida gapirib bersangiz va haddi chegarasi haqida? Hozirda bu ilm faqat musulmonlarga xususan imom-domlalarga kerak, deb o‘ylayman!” Shayx hazratlari: “Murosa ilmining chegarasi yo‘q. Vaziyatga qarab murosa qilinadi, ziddiyatlar murosa yo‘li bilan hal qilinadi”, - deb javob berganlar. Demak, murosa falsafasining sulh, murosa, rizo, shukr kabi tushunchalarga doir g‘oyalari barcha davrlar uchun muhimdir.

Murosa falsafasining muammolari xususida tasavvufshunos olim N.Komilov: “Inson tarbiyasi, insonni nuqsonlar, gunohlardan qutqarish ulug‘ ajdodlarimizning qayg‘usi bo‘lib kelgan. Ular savob va gunoh, soya va nur, rahmon va shayton, xayr chegarasida yaratilgan inson degan mubham xilqatni anglash, unga rahmoniy va shaytoniy quvvatlarni qachon, qayerda kuchga kirishi, bu kuchlarning sababi nima ekanligini tushunishga jiddiy ahd qilganlar”, - deydi. (10;150)

N.Komilovning mazkur nuqtai nazardan naqshbandiya ta‘limotida insonning ilohiy va hayvoniy sifatlarga ega bo‘lishi mumkinligini aytib, uning yon bosish, murosa, sulh, rizo, shukronalik, insonlar manfaati uchun yashash tarzi ilohiylik tomoni, nafsga berilishi, xudbinlik va nizolarni keltirib chiqarishi hayvoniy sifat ekanligini anglash mumkin. Tasavvuf Allohni esdan chiqarmaslikka undaydi, badnafslilik, odobsizlik, adolatsizlik, o‘zlikni anglamaslik kabi qator salbiy illatlarga qarshi kurashadi, qachonki, mazkur holatni inson o‘zida boshqarar ekan holat barqaror bo‘ladi, ya‘ni, tartibsiz holatdan muayyan tartibli holatga o‘tish sodir bo‘ladi. Mutasavviflar mazkur barqarorlikning asosini murosayu madora, shukr, sulh va rizo deb bilganlar.

XULOSA

O‘tmish mutafakkirlarining murosayu madora, sabr, shukronalik haqidagi fikrlari, insonrarvarlik, bunyodkorlik g‘oyalari bugun ham g‘oyaviy-siyosiy madaniyatimizni shakllantirishda qimmatli noyob xazinadir. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib murosa jamiyat barqarorligi, mamlakat tinchligi, xalq osoyishtaligini ta‘minlashning asosi, ziddiyatlar oldini olishning maqbul yo‘li sifatidagi insoniy fazilat bo‘lib, o‘zbek xalqining mentalitetiga xos, milliy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan falsafiy tushuncha deb aytish mumkin. Islom so‘zining lug‘aviy ma‘nosi “ixlos”, “ofatlardan salomat bo‘lish”, “sulh va omonlik”, “itoot va bo‘ysunish” kabi ma‘nolarni anglatadi. Insonlarning qalbida tinchlik haqiqatini qaror toptirishda, tinchlik tamoyili butun jamiyat uchun haqiqatga aylanishida murosa, sulh tushunchalarining mohiyatini anglash katta ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Хаджиева М. Ўзбекистонда толерантлик жараёни. Т – 2008. 25-26 б.
2. Черепанова, Е. С. Философия конфликта: [учеб. пособие]. – Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2016. – 196 с.;
3. Негматова Ш.Ш. Ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиёти шароитида соғлом рақобатни ривожлантиришнинг маънавий, ахлоқий ва ҳуқуқий жиҳатлари. / Фалс. Фан.докт. дисс. – Самарқанд, 2018.
4. Ижтимоий сиёсий терминларнинг қисқача изоҳли луғати. Н.Маҳмудов таҳрири остида. – Тошкент: “Sahhof”, 2021. - 304 б.
5. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. –Т.: “Маънавият”, 2008. – Б. 345.
6. Имамалиева Р.М. Синергетика – дунёга янги қараш усули сифатида. //Синергетиканинг табиий-илмий ва фалсафий муаммолари: илмий-назарий семинар: (илмий мақолалар тўплами) / М.Н.Абдуллаева таҳрири остида. –Наманган: 2009. – Б. 40.
7. Хаитов Ш. Муроsa ва Ўзбекистон фалсафа тарихига кириш. - Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти. 2010. –Б.28
8. Raxmatova X.X. Hoja Ahror Valiy ma'naviy merosida murosa falsafasiga doir g'oyalar tahlili. -Buxoro: Sadridin Salim Buxoriy. 2023. –Б 12.
9. Давлетчина С.Б. Словарь по конфликтологии. Издательство ВСГТУ, Улан-Удэ, 2005. - С 100.
10. Комилов Н.Тасаввуф. Иккинчи китоб. Тавҳид асрори. - Тошкент: Адабиёт ва санъат нашр., 1999. – Б.150